

ARPA DONIDAN SHIFOBAXSH QAXVA TAYYORLASH

*Jahbaraliyev Qudratillo Raxmatillo o‘g‘li
 Saksonboyeva Mushtariy Lochinbek qizi
 To‘xtasinova Rayxongul Avazbek qizi
 Bekmirzayeva Gulxayo Mirzohodjon qizi*

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabalari



Annotasiyasi: Arpani halq xo‘jaligidagi ahamiyati ma’lum o‘rinni egallab, asosan chorva mollari uchun ozuqa va pivobop navlari donidan pivo ishlab chiqarishda hamda yirik donli navlaridan oziq - ovqat sanoatida yorma tayyorlanadi. Pivo sanoati uchun arpaning donidagi oqsil kam bo‘lishi va ekstraktiv quruq modda ko‘p bo‘lishi lozim.

Kalit so‘zlar: Arpa, don, kofe, o‘simplik, vitamin, oqsil.

Biologiyasi: Arpa jahon miqyosida kuzda va bahorda ekiladi. Kuzda ekiladigan navlari qishkisov uqqa chidamli bo‘lib, bahorda ekiladigan arpaga nisbatan mo‘l hosil beradi. O‘zbekistonda arpa deyarli kuzda ekiladi. Odatta kuzda ekilgan arpa bahorda ekilganiga qaraganda erta pishib, hosilni o‘rib - yanchib olinganidan so‘ng (suvli yerlarda) takroriy ekin ekish uchun yer erta bo‘shaydi. Bu esa ekilgan takroriy ekinlardan mo‘l hosil olishga imkon yaratadi.

Arpa donida 15% oqsil, 3.5% gacha yog‘lar, 75% gacha uglevodlar, shuningdek klechatka, pektin moddalar bor. Arpa donidagi oqsil tarkibiga alishtirib bo‘lmaydigan to‘la qimmatli aminokislotalar ham kiradi. Arpa donida B guruh vitaminlari E va karotin moddasi bor. Ibn Sino fikriga qaraganda arpa organizmni tozalash xususiyatiga ega deyilgan. Arpa ko‘plab sog‘liq uchun foydali narsalarni o‘z ichiga olgan xilma xil dondir. Arpa ochlikni kamaytirishga yordam beradigan va vazn yo‘qotishga yordam beradiga moddalarga boy dondir, bundan tashqari arpa donlari yog‘ va kalloriyalardan past tolaga boy va antioksidanlarni oz ichiga oladi.

Hozirgi vaqtida arpa ekini dunyoning ko‘plab davlatlarida: Yevropa, Osiyo, Shimoliy Amerika, Lotin Amerikasi, Afrika, Avstraliya hududidagi ko‘pchilik maydonlarda ekiladi. Arpa ekini maydoni jahon bo‘yicha 73 mln. hektar atrofida bo‘lib, bug‘doy, sholi, makkajo‘xoridan so‘ng to‘rtinchli o‘rinni, O‘zbekistonda esa donli o‘simpliklar orasida bug‘doydan keyin ikkinchi o‘rinni egallaydi. Arpa respublikamizning suvli va lalmikor yerlarida yetishtiriladi.

ARPANI Markaziy Osiyoda ekin maydoni

Qozig‘iston- 1996,7 ming.ga

Qirg‘iziston- 133,3 ming.ga

Tojikiston-64,83 ming.ga

Turkmaniston- 61,0 ming.ga

O‘zbekiston- 80,0 ming.ga

Biologik xususiyatlari: Kuzgi arpa urug‘lari 1-2 C haroratda una oshlaydi. Urug‘larning unib chiqishi uchun optimal harorat 15-20 C. Tuplanish fazasida 12-14 C sovuqqa bardosh beradi. Qor qoplami bo‘lmaganda, o‘simliklar tuplana olishga ulgurmaganda -7-8 C sovuq ham kuzgi arpa uchun xavfli.

Kuzgi arpa kuzgi bug‘doyga nisbatan qurg‘oqchilikka, issiqlikka chidamli. Sug‘orishga talabchan, o‘suv davrida tuproqda cheklangan dala nam sig‘imi (ChDNS) 70 % kam bo‘lmaganda yuqori hosil beradi.

Qisqa yorug‘lik kunida uning boshoq tortishi kechikib, kech yetiladi. Yarovizatsiya davri 0-2 C, 40-45 kun. Tezpishar, kuzgi bug‘doyga nisbatan O‘zbekiston sharoitida 10-15 kun erta yetiladi

Kuzgi arpa kuzgi bug‘doyga nisbatan sho‘rga ancha chidamli. Unumdar, g‘ovak, strukturali tuproqlarda yuqori hosil beradi. Tuproq muhiti pH 6-7 bo‘lishi arpa uchun maqlu.

Aholining eng aktual muammosini ya’ni O‘zbekiston aholisini shifobaxsh qaxva ichimligiga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida “Arpa donida shifobaxsh qaxva”ning foydali xususiyatlari. O‘zbekistonda kofe o‘simligini o‘stirish uchun tuproq-iqlim sharoitini mos kelmasligini hisobga olib Arpa va boshqa ekinlardan surragat mahsulot yetishtirishni yo‘lga qo‘yishni amalgalash oshirmoqda.

Takliflar: Mamlakatimiz xududida ekib yetishtirilayotgan arpa navlarini nav belgilarini o‘rganish hamda qahva tayyorlashga mos keladigan shakllarini tanlab olish;

arpa donini xar-xil temperaturada qovurib, undan sifatli qahva mahsuloti olish mumkin bo‘lgan optimal kuydirish uslubini aniqlash;

arpadan kam xarajat qilib shifobaxsh qahva tayyorlash va uni xalqimiz orasida keng targ‘ibot qilish.

XULOSA: Ekologik sof yo‘l bilan yetishtirilgan va ishlab chiqarilgan arpa qahvasidan turli kasalliklarni oldini olish maqsadida profilaktik ichimlik sifatida foydalilanishi, arpa doni orqali yetishtirilgan qahva sut mahsulotlari va shakar bilan boyitilib o‘zgacha ta’m va xushbo‘y bo‘lishi ta’minlanadi. Saqlash muddati kofe qahvasiga nisbatan 2 barobar ortadishini va tabobatda qandli diabet kassaligiga chalingan insonlar iste’mol qilishlari mumkinligini o‘rgandim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ma’ruza matn ‘Noananaviy ekinlar seleksiyasi va urug‘chikigi’ AQXAI 2023-yil 20-21-b.
2. Egamov X., Abdumalikov U., Zaparov Z., Tillaboev A., Toshpo‘latov A. Yaratilgan yangi g‘o‘za tizimlarining xo‘jalikka foydali belgilarini aniqlash. Innovatsiya: fan, ta’lim, texnologiya. Ilmiy-uslubiy maqololar to‘plami. Сборник научно методических статей №1. Andijon. 2018 y. 121-123-b.

3. Мирахмедов Ф.Ш., Абдумаликов У.З., Абдумаликов И., Тиллабоев А. Минеральные удобрения и их рациональное применение на орошаемых землях Узбекистана // Интегративные процессы мирового научно-технологического развития, Белгород, 2017. С. 19-21.
4. Кимсанов И.Х, Кодиров О.А, Рахимов А.Д, Абдумаликов У.З. Изучение морфологических и хозяйствственно-сенных признаков новых сортов хлопчатника в условиях андижанского вилоята// Приоритеты инновационно-технологического развития в условиях глобализации, Белгород, 2019. С. 24-27.